

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

3/1-son
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

M. Arslanova	4	Bo'lajak oligofrenopedagoglarda inklyuziv ta'lim kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik mazmuni
N. Kadirova	9	Texnologiya fanining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati
S. Abdirasilov	15	Tasviriy san'at o'qituvchisining pedagogik kompetentligi mohiyati va mazmuni
N. Bekmuratov, I. Urinbayev	21	Tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy-metodik tayyorlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari
M. Abralova, Z. Abralova	25	Raqamli transformatsiya sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining sanogen tafakkurini rivojlantirish
M.S. Nimatova	29	Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida topshiriqlar bajarishida kredit-modul tizimining mazmuni
T. Abdujabborova	34	Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning hamkorlik yo'llari
R. Tuxtasinova	39	Variativ dasturlarni amaliyotda qo'llash ta'lim sifatini oshirish omili sifatida
N. Djanxodjaev	42	Neyropedagogikaning nazariy asoslari
A. Gulyamova	46	Hamkorlik pedagogikasi orqali talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish
B. Xakimova	50	Zamonaviy "Gender" atamasi va o'smirlarni mustaqil qaror qabul qilishiga yo'naltirishning gender muammolari



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

D. Sobirov	54	Pedagogika fanlaridan o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning xususiyatlari
O. Mustafoyev	58	Nashrlarda sarlavha va matn munosabatlari: (Samarqand viloyati "Zarafshon", Buxora viloyati "Buxoronoma" gazetalari misolida)
K. Po'latova	62	Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining geometrik masalalar vositasida o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishdagi pozitsiyasi
M.T. Nurbayeva	73	Boshlang'ich ta'limni tashkil etishda sharq mutafakkirlarining odob-axloq masalalariga oid qarashlari
F. Kalandarova	79	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining deontologik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari

TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

O. Ishmatova	82	Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktab-internatlarida tashkil etilgan ritmika mashg'ulotiga doir metodik ishlarning holati
A. Ernazarov	88	Ta'lim sifatini ko'tarish uchun o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish zarur

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

F. Qodirova, S. Ulxo'jaeva	93	Mustaqil ta'limda talabalarning kasbiy-amaliy traektoriyasini individual yo'naltirish masalalari
---------------------------------------	----	--



Feruzaxon QODIROVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Maxsus pedagogika" kafedrası mudiri,
p.f.d., professor

Sevara ULXO'JAEVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

MUSTAQIL TA'LIMDA TALABALARNING KASBIY-AMALIY TRAEKTORIYASINI INDIVIDUAL YO'NALTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada mustaqil ta'lim jarayonida faoliyatni tizimli tashkil etish orqali talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning turli yo'llari tahlil etilgan. Mustaqil ta'lim orqali talabalarda shakllanishi kerak bo'lgan sifatlar aniqlashtirilgan.

Tayanch so'zlar. Mustaqil ta'lim, kasbiy faoliyat, kompetensiya, faoliyat, ustoz-shogird.

В статье анализируются различные способы подготовки студентов к профессиональной деятельности посредством системной организации деятельности в процессе самостоятельного образования. Определены качества, которые необходимо формировать у студентов посредством самостоятельного обучения.

Ключевые слова. Самостоятельное образование, профессиональная деятельность, компетентность, активность, наставник-ученик.

The article analyzes various ways of preparing students for professional activities through the systematic organization of activities in the process of independent education. Qualities that should be formed in students through independent education have been defined.

Key words. Independent education, professional activity, competence, activity, mentor-student.

Bo'lajak logopedlarda kasbiy faoliyat bilan bog'liq hamda ijtimoiy muhitda qulay harakatlanish imkonini beruvchi ko'nikma va malakalarni ijtimoiy, kommunikativ, informasion kompetensiyalar tarzida mujassamlashtirgan holda hamda kasbiy va shaxsiy sifatlar kabi turkumlarga ajratgan holda rivojlantirish zarurati mavjudligi amaliyotdagi holatlarni kuzatganda aniqlandi. Bundan tashqari har qanday kompetensiya haqida gapirilganda, eng avvalo, kasbiy bilimdonlikni unutmazlik lozim. Ya'ni talabalarning mustaqil ta'lim davrida an'anaviy yondashuvmi yoki zamonaviy texnologiyalarni qaysi biridan foydalanilmasin, eng muhim talab bu – bo'lajak mutaxassis-larga qo'yiluvchi malaka talablarida ko'zda tutilgan kasbga oid va modullar mazmuniga mos bilimlarni talabalarga yetkazishning zarurligini oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari anglashlari maqsadga muvofiqdir.

Abu Nasr Forobiy bolaga turli bilimlarni o'rgatishning mazmuni va qoidalarini bevosita o'z faoliyatida sinab ko'rgan. U ta'lim-tarbiya berishda rag'batlantirish va jazolashga yohud majbur qilishga ajratgan holda quyidagi fikrlarni ilgari surgan: "Bolalarga ta'lim bergan kishi muallim bo'lib, u tarbiya berishda turli usullardan foydalanadi. Shundan ma'lum bo'ladiki, hukumat va muallim har ikkovi oz bo'lsa-da, bolalar yoki xalqqa tarbiya beruvchilar, ustoz va muallimlardir. Ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so'zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchisi majburiy ravishda tarbiyalaydi". Alloma o'qituvchini xolis, odil, oqilligini alohida ta'riflaydi. Uning fikricha, o'qituvchi – jamiyat ko'zgusi

sifatida quyidagi sifatlarni o'zida shakllantirishga muvaffaq bo'lishi lozim, ya'ni u aytadi: “O'qituvchi barcha organlari mukammal, masalani tez va mantiqiy tushunadigan, xotirasi kuchli, zehni o'tkir, nutqi ravon, bilish va o'qishga muhabbati kuchli, ko'zi to'q, pokiza, haqiqatparvar, g'ururli va vijdonli, pulni sevmaydigan, adolatli, qat'iyatli, qo'rqmas va jasur bo'lmog'i lozim”. Bundan tashqari Forobiy har biri bir olam bo'lgan bolalarning fe'l-atvoriga qarab, ta'sir etish jarayonida “qattiq” yoki “yumshoq” usullardan foydalanish kerak, deb hisoblagan.

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimiz o'zining ajoyib ma'naviy boyliklari – asarlarini qoldirganlar. Ushbu ma'naviy boyliklardan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishda, asosiy tamoyillarga tayangan holda samarali yo'llarni tanlab olishda qo'llanilib kelinmoqda. Bo'lajak logopedlarni ham vatanparvarlik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat va o'zaro hurmat ruhida tarbiyalashda sanab o'tilgan Sharq mutaffakkirlarining pedagogik qarashlari har bir o'qituvchi uchun dasturulamaldir.

V.I. Andreev kompetensiyaning quyidagi komponentlarini sanab o'tadi: “Shaxsning ijobiy motivatsiyasi, sohaga oid bilimi, mahorati, iqtidori va ijodiy faoliyat tajribasi hamda o'quv, kasbiy va boshqa kompleks masalalarni yechishda namoyon bo'luvchi, rivojlanib boruvchi integral ko'rsatkich, tayyorgarlik darajasidir”. Olimning ushbu tavsifidan bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismlarini ajratishda tayanish mumkin, deb hisobladik. Natijada quyida bo'lajak logopedlarga o'z kasbiy faoliyatini oldindan ko'z oldiga keltirishga erishish maqsadida quyidagi ta'rifni shakllantirdik.

Demak, kompetentli logoped-o'qituvchi deb, o'zining ustida muntazam ishlaydigan, kasbiy mahoratini rivojlantirishni qadriyat darajasiga ko'targan, korreksion-pedagogik jarayonini nafaqat loyihalashtiradigan, balki uni samarali boshqaradigan, davlatning ta'limga bo'lgan ijtimoiy buyurtmasini, zamon talablarini, innovatsion yondashuvlarni tez fursatda ilg'ab, uni o'z amaliyotiga moslashtirgan tarzda qo'llay oladigan mutaxassisni tushunish mumkin, deb ta'rif berdik.

Yuqorida keltirilgan kasbiy faoliyatga qo'yiluvchi talablarni o'zida mujassamlashtirgan ta'rifni quyidagicha umumlashtirish mumkin: kompetentlik – bu kasbga oid harakatlar mohiyatini tashkil etuvchi funksional (lavozim majburiyatiga xos) vazifalarni samarali hal qiladigan bilim, ko'nikma va malaka hamda shaxsiy sifatlarning tizimli tarzda namoyon bo'lishidir.

Mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asos bo'luvchi bosqichlarni ajratib olish ehtiyoji tug'ildi. Mustaqil ta'limda pedagogik jarayonlarni tashkil etish, sifat va samaradorligini ta'minlashda subyektlar (o'qituvchi va talaba) faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish (darsda va darsdan keyin), nazorat qilish (davriy olib boriladigan ish turlari: suhbat, konsultatsiya, “Master klass”lar, “Ustoz-shogird” soatlari...) va obyektiv baholash (o'z-o'zini baholash, boshqa talabalar faoliyati va ularning natijalarini namoyish qilish orqali taqqoslash...), rag'batlantirish(-ma'naviy, motivatsion, stimullashtirish) asosida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini muvofiqashtirishni ifodalaydi.

Mustaqil ta'lim davrida talabalarning kasbga oid faoliyatlari natijalarini sifat jihatdan baholash mezonlaridan biri ularning logopedik bilimi va korreksion ishlarni tashkil etish malakasiga qarab belgilanadi. Shuning uchun talabalar mustaqil ta'lim davrida o'zining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati orqali pedagogik, metodik mahoratini rivojlantirishi, o'z bilimlarini muntazam oshirib borishlari zarurdir.

Biz talabalarning bu jarayondagi faoliyatlarini samarali tashkil etishlariga erishishni ta'minlaydigan oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari e'tiborlarini qaratishlari lozim bo'l-

gan quyidagi tavsiyalarni asosladik:

– mustaqil ta'lim davrida talabalar faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining muayyan maqsadga yo'naltirilganligi, ilmiy-amaliy jihatdan asoslanganligi, bundan tashqari, eng muhimi, ushbu ta'limning mazmunini to'g'ri tanlash, o'quv-topshiriqlarning murakkablik darajalarini aniqlash mexanizmlarini muntazam o'rganish orqali tegishli tuzatishlar kiritib borish;

– mustaqil ta'lim sifatini baholash, tashkil etilish bosqichlari va ularning taraqqiy etib borishini ta'minlash, strategik va taktik yo'llarni tanlash hamda belgilash;

– mustaqil ta'limda talabalarni o'qitish va tarbiyalashning muqobil usullarini ishlab chiqish, ularning kasbiy dunyoqarashini rivojlantirishga, turli jamoa(amaliyot o'taydigan, ko'chma mashg'ulot (amaliy mashg'ulotning boshqa muassasada o'tilishi)olib boriladigan muassasalarda)larning barcha a'zolari orasida hurmat, ishonch, "Ustoz-shogird"-lik, do'stlik va o'zaro hamkorlikka asoslangan munosabatlarni o'rnatishga o'rgatuvchi texnologiyalarni tatbiq etish.

Bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini turli ta'lim shakllari va vositalari orqali rivojlantirish muammosini har tomonlama ilmiy-nazariy o'rganish jarayoni bu yo'nalishda xorijiy hamda pedagogika rivojlanishining turli davrlari olimlarining bu masaladagi qarashlarini ham o'rganishga ehtiyoj tug'dirdi. Chunki kompetensiya o'qituvchining yuqori sifat ko'rsatkichli faoliyat darajasi sifatida tavsiflanar ekan, o'qituvchilik, unga qo'yiluvchi talablar, o'qituvchi shaxsi va boshqa tushunchalarning amaliyotda qo'llanilishi uzoq tarixga borib taqaladi.

Rivojlangan logopedik o'quvlarni kasbiy kompetensiyalar sifatida talqin etish mumkin. Ya'ni shaxs faoliyatiga kasbiy mehnat harakatlarini muvaffaqiyatli singdirilishi kasbiy kompetensiyaning elementlari tarkib topganligidan dalolat beradi. Demak, kasbiy kompetentlilik – bu amaliyotga mos harakatlar tizimini samarali amalga oshirish orqali natijalarga erishishdir. Demak, bo'lajak logopedlarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashda amaliyotning o'rni va ta'siri kattadir. Oliy ta'lim muassasasi mutaxassisni kelajak amaliyotiga tayyorlash nuqtayi nazaridan qochib, bugungi kun amaliyotiga zarur bo'lgan kasbiy ehtiyojlardan kelib chiqib, tegishli kompetensiyalarni talabalarda shakllantirishga mas'uldir.

Shuning uchun mustaqil ta'lim aynan talabani bugungi kun amaliyotidan kelib chiqib, mos yondashuvlarni tanlash va qo'llash imkonini beradigan ta'lim turidir.

Oliy ta'lim muassasalarda mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ish turlari va yo'nalishlarini belgilashda kasbiy faoliyat bilan bog'liq yo'llarni tanlash lozim. Shundagina talabalar kelajakda kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli bilim, ko'nikma va tajribalarni namoyon eta oladilar.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyasiga qo'yiluvchi talablarni ajratish mumkin:

Umumiy va maxsus pedagogika nazariyasi hamda psixologiyani bilish.

Korreksion ishlarni amalga oshirishga doir pedagogik mahorat, ta'lim-tarbiya texnologiyalarini egallashga intilish.

Mustaqil ta'lim va pedagogik amaliyot jarayonida mashg'ulotlarni samarali tashkil eta olish uchun zarur choralarini o'qituvchi va amaliyotchilar bilan hamkorlikda ko'rish va ishlarni rejalashtirish.

Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni boshqa bolalar bilan birdek sevishtirish, uning noyobligini yuzaga chiqarish usullarini topish va qo'llash.

Logopedlikning muhim harakat elementlarini o'zida tarkib toptirish, xususan, sabrli

bo'lish, o'zini tuta bilish, bolalarni tushunish va ular bilan ishlashni bilish.

O'z nutqi ustida doim ishlash.

O'zida tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllantirish, maqsadni qo'ya olishi va unga erisha olishi;

Mustaqil ta'lim davrida turli ish turlarini bajarishda vaqtni to'g'ri taqsimlay bilish.

Intizomli, mas'uliyatli, faol bo'lish.

Kichik guruhlarda ishlaganda o'zaro ishlarni taqsimlay olish va mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilish.

Nazariy va amaliy ma'lumotlar hamda milliy hamda xorijiy tajribalarni tahlil etish orqali kompetentli logoped-o'qituvchiga quyidagicha ta'rif shakllantirildi: “Kompetentli logoped o'zining ustida muntazam ishlaydigan, kasbiy mahoratini rivojlantirishni qadriyat darajasiga ko'targan, korreksion-pedagogik jarayonini nafaqat loyihalashtiradigan, balki uni samarali boshqaradigan, davlatning ta'limga bo'lgan ijtimoiy buyurtmasini, zamon talablarini, innovatsion yondashuvlarni tez fursatda ilg'ab, uni o'z amaliyotiga moslashtirgan tarzda qo'llay oladigan mutaxassisdir”. Sanab o'tilgan talablariga to'liq javob berishda har bir talabaning mustaqil ta'limini individual rejalashtirish va amaliyotga yo'naltirish muhimdir. Shundagina talabalarning mustaqil ta'limi samarasiz vaqt o'tkazish emas, balki kasb egallash uchun mashq maydoniga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Baxt-caodatga erishish yo'llari haqida ricola. – T., 1992, – 120-b.

2. Usmanovna, Q. F. (2018). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali omili sifatida. *Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan)*, (10), 55-62.

3. Kodirova, F. U. (2021). Optimalnye PUTI resheniya metodicheskix problem inkluzivnogo obrazovaniya. *Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal*, 2(4), 216-224.

4. Qodirova, F. U., & Kenjaev, N. U. (2020). Inkluziv ta'lim sharoitida kar va zaif eshituvchi bolalarning o'qishiga ta'sir etuvchi omillar. *Academic research in educational sciences*, (3), 904-910.